# O‘ZBEKISTON IQTISODIYOTINI BARQAROR O‘SISHINI TA’MINLOVCHI OMILLAR

**Bazarova Mamlakat Supiyevna**
*Osiyo Xalqaro Universiteti katta o'qituvchisi*

**Annotatsiya**. *Iqtisodiy samaradorlik deganda bir yil davomida (ma’lum davrda) amalga oshirilgan tadbirlar bilan bog‘liq bo‘lgan xarajatlar, ular natijasida olingan sof foyda summasi bilan taqqoslanadi.*

**Kalit so'zlar:** *milliy iqtisodiyot, raqobatbardoshlik, xalqaro reyting va indekslar, iqtisodiyotni modernizatsiyalash va diversifikatsiyalash, inson kapitali, innovatsiyalar, innovatsion faollik, strategiya,iqtisodiy o'sish.*

**Annotation**. *By economic efficiency, the costs associated with activities carried out over a year (a certain period) are compared with the amount of net profit received as a result of them.*

**Keywords:** *national economy, competitiveness, international rankings and indices, modernization and diversification of the economy, human capital, innovation, innovative activism, strategy, economic growth.*

**Аннотация**. *Экономическая эффективность это затраты, связанные с деятельностью, осуществленной в течение года (определенного периода), сопоставимые с суммой чистой прибыли, полученной в результате.*

**Ключевые слова:** *Национальная экономика, конкурентоспособность, международные рейтинги и индексы, модернизация и диверсификация экономики, человеческий капитал, инновации, инновационная активность, стратегия,экономический рост,*

Bozor iqtisodiyoti sharoitida xalqning ortib borayotgan ehtiyojlarini qondirishda ishlab chiqarish samaradorligi yuqoridagi ko‘rsatkichlarga qaraganda kattaroq ahamiyatga egadir. Samarali ishlash deganda o‘z mohiyatiga ko‘ra, mo‘ljallangan foydani olish, ishlab chiqarishdagi barcha xarajatlarni kamaytirish, turli yo‘qotishlarni bartaraf etish, ishlab chiqarish quvvatlari va ishchi kuchidan yaxshiroq foydalanish, mehnat samaradorligini oshirish, ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarning sifatini yaxshilashni anglatadi. Ushbu tushunchani millliy iqtisodiyot, har bir korxona va tashkilot uchun ham ahamiyati nihoyatda kattadir. Shu sababli, “samara” va “samaradorlik” tushunchalarining mohiyatini yaxshi anglab olish zarur.Iqtisodiyotdagi ko‘p tushunchalar qatori bu tushunchalarning iqtisodiy mohiyati to‘g‘risida ham ko‘plab tortishuvlar mavjud bo‘lib, ularning barchasida bir xil mohiyati turli shakllarda ifoda etilmoqda. Hozirgi vaqtgacha

bo‘lgan davrdagi iqtisodchi olimlarning ko‘plari “samara” va “samaradorlik” tushunchalariga ta’rif berishga harakat qilganlar. Ular bu ta’rifni berishda “samara” va “samaradorlik”ning juda katta iqtisodiy va ijtimoiy ahamiyatini hisobga olishgan.“Iqtisodiy samara” - foydali natija, oqibatdir. Iqtisodiy samara moddiy, mehnat, pul va boshqa resurslarni tejash orqali, vaqtni tejash orqali, qurish muddatlarini qisqartirish orqali, mehnat sarfini kamaytirish orqali, vaqt yo‘qotishlarini kamaytirish, aylanma vositalar aylanishini tezlashtirish, sifatni yaxshilash, mahsulot ishlab chiqarish hajmini orttirish orqali olinadigan natijadir. “Iqtisodiy samara” natural, mehnat va qiymat ko‘rsatkichlari – miqdor va sifat ko‘rsatkichlari bilan aniqlanishi mumkin.” O‘zbek tilining izohli lug‘atida «Samara-Natija, hosila, foyda», Iqtisodchi olimlar O’.P.Umurzoqov, A.J.Toshboev, A.A.Toshboevlar: «Iqtisodiy samaradorlik ishlab chiqarish vositalari va jonli mehnatni qo‘llash orqali olingan foydali natijani yoki jami resurslar birligiga olingan natijani ifoda etadi. Iqtisodchi olim A.Abdug‘aniev fikricha, «Iqtisod fanlarida «samaradorlik» va «iqtisodiy samaradorlik» tushunchalari mavjud. Ular mamlakat, tarmoq, korxona, yo‘nalishlar hamda ayrim mahsulotlar bo‘yicha aniqlanishi mumkin.Xorijlik iqtisodchi olimlar tomonidan samara, samaradorlik va iqtisodiy samaradorlik tushunchalariga bir qator mualliflik yondashuvlari va fikr-mulohazalar bildirilgan (1.1-jadval).

**Xorijlik iqtisodchi olimlar tomonidan samara, samaradorlik va iqtisodiy samaradorlik tushunchalariga bir qator mualliflik yondashuvlari va fikr-mulohazalar bildirilgan.**

| Mualliflar | Samara, samaradorlik va iqtisodiy samaradorlik tushunchalariga mualliflik yondashuvi |
|---|---|
| Bezrukova T.L., Borisov A.N., Shanin I.I. | Iqtisodiy samaradorlik ijtimoiy ishlab chiqarishning barcha bosqichlarini qamrab oladi, korxona faoliyatining miqdoriy va sifat mezonlarini qurish uchun asos bo‘lib, kengaytirilgan takror ishlab chiqarish jarayonlarining moddiy-tarkibiy, funksional va tizim xususiyatlarini shakllantirish uchun ishlatiladi. |
| | «iqtisodiy samara»- iqtisodiy faoliyat natijalarining muayyan vaqt oralig‘ida o‘zaro ta’sirlashishining aniq shakllari o‘rtasidagi dinamik muvozanatning o‘zgarishini tavsiflovchi iqtisodiy tizim faoliyatining yakuniy natijasi; |
| Polinskaya M.V. | Ishlab chiqarish samaradorligi murakkab va ko‘p qirrali tushunchadir. Qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishining samaradorligi - ijtimoiy ishlab chiqarishning eng muhim jihatlaridan birisamaradorlik aks ettirilgan iqtisodiy kategoriya. Ishlab chiqarish samaradorligining mohiyati ishlab chiqarish maqsadiga eng kam mablag‘ sarflashdan iborat. |

| | |
|---|---|
| Grishin I.Yu. | Samaradorlik – tizimning amal qilishini boshqarish jarayonida maqsadga yo‘naltirilgan kompleks operatsion xususiyatdir, uning bajaradigan operatsiyalari boshqa barcha jarayonlardan maqsadning mavjudligi bilan farq qiladi, samaradorlik ko‘rsatkichi operatsiyaning maqsadgaerishganlik darajasini ko‘rsatishi kerak. |
| Gerasimov B.I., Kosov N.S va boshqalar. | Iqtisodiy samaradorlik – bu harakat va resurslar sarfini amalga oshirish natijasida maksimal (eng yaxshi) natija olinishini ta’minlovchi harakatlar usuli |
| | Ijtimoiy mahsulotni ko‘paytirishga yo‘naltirilgan iqtisodiy samaradorlik xususiy mulk ustuvorlik qiladigan bozor iqtisodiyoti tizimi doirasida eng yaxshi ko‘rsatkichga erishadi. |
| Zueva Ye.I., Lixovsova Ye.A. | Samaradorlik – ishlab chiqarish maqsadini aks ettirish shakli. U turli xil rusurslar (mehnat, pul, material, yer va shu kabi) foydalanishdn foydali samarani ko‘rsatadi. Samaradorlikni oshirish – sarflangan resurslar birligiga nisbatan ko‘proq mahsulot olishni bildiradi. Iqtisodiy samaradorlik iqtisodiy samaraning ushbu samarani vujuga keltiruvchi resurslarga nisbatini ifodalaydi, yoki aksincha – resurslarning iqtisodiy samara ko‘rsatkichiga nisbatini ifodalaydi. |

Iqtisodiy samaradorlik tushunchasi samaradorlik tushunchasiga nisbatan kengroq mazmunga ega. Iqtisodiy samaradorlik deganda bir yil davomida (ma’lum davrda) amalga oshirilgan tadbirlar bilan bog‘liq bo‘lgan xarajatlar, ular natijasida olingan sof foyda summasi bilan taqqoslanadi. Shunda sarflangan xarajatlar evaziga olingan sof foyda summasi qancha ko‘p bo‘lsa iqtisodiy samaradorlik darajasi shuncha oshgan hisoblanadi va aksincha. Samaradorlik mohiyati nafaqat ishlab chiqarish natijalari va xarajatlar o‘rtasidagi arifmetik raqamlar bilan, balki foydali natijalarga erishish yo‘lida xarajatlar miqdorini kamaytirish bilan bog‘liq bo‘lgan ishlab chiqarish, taqsimot va ayirboshlash munosabatlari orqali ifodalanadi. Ishlab chiqarish samaradorligi xarajatlar va natijalar o‘rtasidagi arifmetik nisbatgina bo‘lmasdan, balki ishlab chiqarish munosabatlarini aks ettiruvchi iqtisodiy atama...» hisoblanadi.Yuqoridagi ta’riflardan kelib chiqib, bugungi kunda samaradorlikni tavsiflashda ishlab chiqarish natijalarini harajatlar bilan solishtirishdir. Iqtisodiy samaradorlik erishilgan ishlab chiqarish natijalari, mahsulotlar, xizmatlarning ishlab chiqarish vositalari va mehnat harajatlariga munosabatidir. Ushbu ko‘rsatkich iqtisodiyot rivojining asosiy ko‘rsatkichidir. Bu ko‘rsatkichni ham bozor va undagi holat bilan bog‘lash lozim. Korxona amalga oshirgan

harajatlar, mehnat harajatlari, mehnat qurollari va buyumlarining harajatlari natijasida ishlab chiqarilgan mahsulot (xizmatlar) va bozorda sotilgan mahsulot xajmi orqali iqtisodiy samaradorlikni belgilash mumkin. Chunki, korxona har qancha yuqori mehnat unumdorligiga erishsa sifatni yaxshilasayu, ammo u tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulot bozorda yaxshi sotilmasa, bu xech qanday samaradorlikka olib bormaydi. Samara va samaradorlik tushunchalariga tarif berishga harakat qilgan ushbu olimlarning ta’riflarida bugungi kundagi iqtisodiyotni moderniza-siyalash davrining hususiyatlari, bozor iqtisodiyoti sharoitidagi keskin raqobat kurashi, talab va taklif qonuni, iste’mol tanlovi nazariyasi va tashkilotlarning yashab qolishi kabi muhim tushunchalar o‘z aksini topmagan. Hozirgi bozor iqtisodiyoti sharoitida ishlab chiqarish korxonalarining asosiy faoliyat natijasi bozorda aniqlanadi. Ular yangi texnika joriy qiladilarmi, yangi xom ashyo turidan foydalanadilarmi, ishlab chiqarishni tashkil etish va boshqarish usulini o‘zgartiradilarmi – ularning barcha faoliyat natijalari bozorda aniqlanadi. Shu sababli, “samara” tushunchasiga ta’rif berishda bozorni va bozor imkoniyatlarin kiritish lozim deb hisoblaymiz. Samaraga quyidagicha ta’rif berishni taklif qilamiz: Sanoat ishlab chiqarish korxonalarining keskin raqobat kurashida yengib chiqib, mahsulotlarining raqobatbardoshlilik darajasini oshirib borib ko‘proq miqdorda mahsulot sotib, o‘zlarining bozor hissalarini oshirish orqali olgan foydali natijasi samara deb atalishi mumkin. Samarag beriladigan bu tarif samarani to‘la ifodalaydi, chunki, har qanday ishlab chiqarish korxonasining ijobiy harakati, ya’ni mahsulot ishlab chiqarishni o‘stirishi, mahsulot sifatini yaxshilashi, foydaliniladigan resurslardan samarali foydalinishi mehnat unumdorligini oshirish va boshqa faoliyati natijalarining barchasi bozordagi faoliyat orqali yuzaga chiqadi. Korxona, agar bozordagi hissasini oshirib, sotuv xajmini orttirishga erishsa, u albatta iqtisodiy samara oladi. Korxona va tashkilotlarning iqtisodiy samaradorligidan iqtisodiyot-ning samaradorligi tarkib topadi. Shu sababli, viloyatdagi yalpi xududiy mahsulotni tahlil qilganda, viloyatdagi barcha ishlab chiqarish korxonalari-ning faoliyati tahlil qilinadi. Natijada viloyatda dotatsiya mavjud bo‘lgan. Bu xolatdan chiqish uchun viloyatdagi barcha mulk shaklidagi korxona va tashkilotlar samaradorlikni oshirishga harakat qilishlari lozim. Sof iqtisodiy samaradorlikdan farqli ravishda ijtimoiy va ijtimoiy-iqtisodiy samaradorlik tushunchalalari ham mavjuddir. Ijtimoiy-iqtisodiy samaradorlik ishlab chiqarish samaradorligini mehnat sharoitlarini, uning ijodkorlik mazmunini boyitish, akliy va jismoniy mehnat ortasidagi farqning yuqotishni hisobga olgan holda tavsiflaydi. Ijtimoiy-iqtisodiy samaradorlik bir vaqtning o‘zida, ishlab chiqarish samaradorligini kuchaytirish, korxonaning muvaffaqiyatini, faoliyat yuritish, shaxsning har tomonlama rivojlanishi va uning barcha qobiliyatlaridan foydalanish va natijasi hisoblanadi.Ishlab chiqarish samaradorligi ijtimoiy samaradorlikka nisbatan birlamchi hisoblanadi: iqtisodiy yutuqlar

korxonaning ijtimoiy muammolarini halq qilishga yordamlashadi. Biz ko‘rib chiqqan samara va samaradorlik kategoriyalari dinamik ravishda o‘zgarib turgan kategoriya-lardandir. Ular doimiy ravishda rivojlanishda bo‘ladi. Samaradorlik orqali korxona o‘zining bozordagi holatini yaxshilaydi, raqobatga bardosh bera oladigan bo‘ladi, xodimlarning ahvolini yaxshilashga va katta miqdordagi foydaga ega bo‘lishni ta’minlaydi. Yuqorida ta’kidlab o‘tganimizdek, bozor iqtisodiyoti sharoitida har bir iqtisodiy subyektning vazifasi ishlab chiqarish samaradorligini oshirishdir. Ularning rahbarlari o‘z korxonalaridagi samaradorlikni orttirish yo‘lida imkoniyatlaridagi barcha resurslaridan samarali tarzda foydalanishga harakat qiladilar, barcha imkoniyatlarini ishga soladilar. Iqtisodiyot miqyosida, tarmoq va viloyatlar hamda korxonalar miqyosida samaradorlik baholab boriladi. Samaradorlikni baholash uchun ko‘rsatkich-lar tizimidan foydalaniladi. Ishlab chiqarish samaradorligi to‘g‘risidagi asosiy tushunchani ma’lum bir mahsulotni ishlab chiqarish uchun sarf bulgan jami harajatlardan olish mumkin. Ko‘plab adabiyotlarda va ilmiy ishlarda samara va harajat to‘g‘risida gap boradi.




**Iqtisodiy samaradorlik ko‘rsatkichlari**

Iqtisodiy samaradorlikni hisoblashda foydalaniladigan qo‘shimcha kapital qo‘yilmalar solishtirilayotgan turli variantlardagi kapital harajatlar o‘rtasidagi farq bilan aniqlanadi. Samaradorlikning yana bir ko‘rsatkichi - mehnat unumdorligidir. Mehnat unumdorligi korxonadagi mehnat sarfi harajatlarini ko‘rsatadi. Ushbu ko‘rsatkichni aniqlash uchun ishlab chiqarilgan mahsulot xajmini ishlab chiqarishda band bulgan xodimlar soniga nisbatan orqali aniqlanadi. Mehnat unumdorligi birlik vaqtga, ya’ni soatga, kunga va oyga nisbatan aniqlanadi. Soatlik mehnat unumdorligi samaradorlikka aniqroq tavsiflaydi. Mehnat unumdorligining natural, qiymat va sifat ko‘rsatkichlari bor. Samaradorlikning natural ko‘rsatkichlaridan foydalangan ma’qul.

## FOYDALANGAN ADABIYOTLAR:

1. Supiyevna, B. M. (2024). TIZIMIDA BANK FINANCIAL SERVICE NUMBER: DEVELOPMENT AND OLD TURGAN. *Gospodarka i Innowacje.*, *46*, 379-385.

2. Bazarova, M. (2023). EFFECTIVENESS OF USING PR-ADVERTISING SERVICES IN THE PROCESS OF PRODUCT DELIVERY ON THE EXAMPLE OF BUKHARA REGION. *Modern Science and Research*, *2*(12), 506-512.

3. Supiyevna, B. M. (2024). IMPROVING THE EFFICIENCY OF LEADER LABOR IN THE MODERN MANAGEMENT SYSTEM. *Gospodarka i Innowacje.*, *54*, 51-55.

4. Supievna, B. M. (2023). USING EFFECTIVE WAYS OF CONDUCTING MARKETING RESEARCH IN INTERNATIONAL COMPANIES. *Gospodarka i Innowacje.*, *41*, 79-83.

5. Bazarova, M. S. (2022). FACTORS THAT ENSURE THE SUCCESSFUL IMPLEMENTATION OF A SYSTEM OF KEY PERFORMANCE INDICATORS IN THE FIELD OF HIGHER EDUCATION. *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal*, *10*(11), 582-586.

6. Bazarova, M. (2025). O’ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA DAVLAT MOLIYASI TIZIMIDAGI ISLOHOTLARNING ASOSIY YO’NALISHLARI. *Modern Science and Research*, *4*(1), 29-36.

7. Базарова, М. С. (2021). ЭКОНОМИКА РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН И РОЛЬ ИНОСТРАННЫХ ИНВЕСТИЦИЙ В ЕЁ РАЗВИТИИ. In *Современные проблемы социально-экономических систем в условиях глобализации* (pp. 350-354).

8. Бозорова, М. С. (2021). Глава 10. Стратегия внедрения цифровых технологий и современных методов в образовательный процесс. In *Инновационное развитие науки и образования* (pp. 122-132).

9. Базарова, М. С., & Пулатов, Ш. Ш. (2019). Проблемы банковской системы узбекистана и пути их решения. *Современные проблемы социально-экономических систем в условиях глобализации*, 131-133.

10. Bazarova, M. S. (2022). FACTORS THAT ENSURE THE SUCCESSFUL IMPLEMENTATION OF A SYSTEM OF KEY PERFORMANCE INDICATORS IN THE.

11. Supiyevna, B. M. (2024). O’ZBEKISTONDAGI XUSUSIY TADBIRKORLIKNI RIVOJLANTIRISH VA AHOLINI ISH BILAN BAND ETISH YO’LLARI. *Scientific Journal of Actuarial Finance and Accounting*, *4*(08), 78-84.

12. Supiyevna, B. M. (2024). WAYS OF EMPLOYMENT OF THE POPULATION IN THE DEVELOPMENT OF PRIVATE ENTREPRENEURSHIP IN UZBEKISTAN. *Gospodarka i Innowacje.*, *51*, 131-137.

13. Bazarova, M. (2024). FEATURES OF BANKING MANAGEMENT IN THE ACTIVITIES OF COMMERCIAL BANKS. *Modern Science and Research*, *3*(6).

14. Bazarova, M. (2024). MARKETING MANAGEMENT STRATEGY'S IMPORTANCE AND MODERN CONCEPT. *Modern Science and Research*, *3*(6).

15. Bazarova, M. (2024). DISTINCTIVE FEATURES OF PERSONAL MANAGEMENT IN THE ACTIVITIES OF COMMERCIAL BANKS. *Modern Science and Research*, *3*(1), 563-567.

16. Bazarova, M. S., & Shahboz, K. (2022). Ways to increase the efficiency of available tourist facilities in Uzbekistan. *Scientific approach to the modern education system*, *1*(10), 16-18.

17. Supievna, B. M. (2023). MARKETING MANAGEMENT STRATEGY'S IMPORTANCE AND MODERN CONCEPT. *Gospodarka i Innowacje.*, *42*, 381-386.

18. Supiyevna, B. M. (2024). DISTINCTIVE FEATURES OF PERSONAL MANAGEMENT IN THE ACTIVITIES OF COMMERCIAL BANKS. *Gospodarka i Innowacje.*, *47*, 134-139.

19. Supiyevna, B. M. (2022). Innovatsion iqtisodiyotda inson kapitalini boshqarish tizimini takomillashtirish.

20. Supievna, B. M., & Firuza, S. (2023). STRATEGIC WAYS OF IMPLEMENTING PERSONNEL POLICY IN COMMERCIAL BANKS. *THE THEORY OF RECENT SCIENTIFIC RESEARCH IN THE FIELD OF PEDAGOGY*, *1*(7), 22-25.

21. Bazarova, M. S., & Khudaiberdiyeva, O. Q. (2022). IMPROVEMENT OF THE MECHANISM OF INNOVATIVE MANAGEMENT OF FOOD INDUSTRY ENTERPRISES. In *Современные проблемы социально-экономических систем в условиях глобализации* (pp. 464-467).

22. Алимова, Ш. А., & Шадиев, А. Х. (2025). СОВРЕМЕННЫЕ ЭКОНОМИЧЕСКИЕ ТЕНДЕНЦИИ В УЗБЕКИСТАНЕ: АНАЛИЗ ДАННЫХ И ПЕРСПЕКТИВЫ. *STUDYING THE PROGRESS OF SCIENCE AND ITS SHORTCOMINGS*, *1*(4), 205-211.

23. Алимова, Ш. А., & Тошов, М. Х. (2025). РОЛЬ ТРАНСПОРТНОЙ ИНФРАСТРУКТУРЫ В РАЗВИТИИ ТУРИЗМА В УЗБЕКИСТАНЕ. *MODERN EDUCATIONAL SYSTEM AND INNOVATIVE TEACHING SOLUTIONS*, *1*(5), 180-186.

24. Алимова, Ш. А., & Шадиев, А. Х. (2025). РОЛЬ ЦИФРОВОЙ ЭКОНОМИКИ В РАЗВИТИИ УЗБЕКИСТАНА: АНАЛИЗ ЗА 2021–2024 ГОДЫ. *THEORY OF SCIENTIFIC RESEARCHES OF WHOLE WORLDT*, *1*(3), 245-252.

25. Алимова, Ш. А., & Тошов, М. Х. (2025). ЦИФРОВИЗАЦИЯ КАК ФАКТОР РАЗВИТИЯ ТУРИЗМА В УЗБЕКИСТАНЕ. *MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS*, *1*(4), 259-266.

26. Алимова, Ш. А., & Тошов, М. Х. (2025). ЭКОНОМИЧЕСКОЕ ЗНАЧЕНИЕ РАЗВИТИЯ ТУРИЗМА В УЗБЕКИСТАНЕ: АНАЛИЗ СОВРЕМЕННОГО СОСТОЯНИЯ И ПЕРСПЕКТИВ. *STUDYING THE PROGRESS OF SCIENCE AND ITS SHORTCOMINGS*, *1*(4), 137-144.

27. Azimov, B. F., & Qudratova, G. M. (2025). OZBEKISTONDA INNOVASION FAOLIYATNI MOLIYALASHTIRISH STRATEGIYASI VA UNI TAKOMILLASHTIRISH. *THEORY OF SCIENTIFIC RESEARCHES OF WHOLE WORLDT*, *1*(4), 36-45.

28. Azimov, B. F., & Qudratova, G. M. (2025). INNOVATSION FAOLIYATNI QO 'LLAB-QUVVATLASHNING YEVROPA MAMLAKATLARI TAJRIBALARI. *ANALYSIS OF MODERN SCIENCE AND INNOVATION*, *1*(5), 35-44.

29. Azimov, B. F., & Qudratova, G. M. (2025). KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK SOHASIDAGI IJTIMOIY VA IQTISODIY HOLAT, HUDUDDA SANOATNI RIVOJLANTIRISHNING ISTIQBOLLARI. *STUDYING THE PROGRESS OF SCIENCE AND ITS SHORTCOMINGS*, *1*(5), 23-30.

30. Azimov, B. F., & Qudratova, G. M. (2025). ISPANIYADA INNOVATSIYALARNI QO 'LLAB-QUVVATLASH SOHASIDAGI ILG 'OR TAJRIBALAR. *THEORY OF SCIENTIFIC RESEARCHES OF WHOLE WORLDT*, *1*(4), 24-35.

31. Azimov, B. F., & Qudratova, G. M. (2025). OLIY TA'LIM MUASSASALARINING INNOVATSION FAOLLIGINI OSHIRISH MINTAQANI IJTIMOIY VA IQTISODIY YUKSALTIRISH GAROVI SIFATIDA. *THEORY OF SCIENTIFIC RESEARCHES OF WHOLE WORLDT*, *1*(4), 46-54.

32. Bobojonova, M. J., & Sodiqova, N. T. (2025). HOZIRGI KUNDA YASHIL DAVLAT XARIDLARI HOLATI VA UNING ISTIQBOLLI YO 'NALISHLARI. *THEORY OF SCIENTIFIC RESEARCHES OF WHOLE WORLDT*, *1*(4), 153-163.

33. Bobojonova, M. J., & Sodiqova, N. T. (2025). JAHON IQTISODIYOTDA YASHIL IQTISODIYOTNING O'SISHI VA GG-GE-SD MODELI. *MODERN EDUCATIONAL SYSTEM AND INNOVATIVE TEACHING SOLUTIONS*, *1*(6), 251-260.

34. Bobojonova, M. J., & Sodiqova, N. T. (2025). YASHIL IQTISODIYOT RIVOJLANISHIDA XALQARO HUJJATLARNING TARKIBIY TUZILISHI VA UNING O'RNI. *MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS*, *1*(5), 222-231.

35. Sodiqova, N. T., & Xalilov, B. B. (2025). KORXONA FOYDASINING TAQSIMLANISHI VA ISHLATILISHI. *STUDYING THE PROGRESS OF SCIENCE AND ITS SHORTCOMINGS*, *1*(5), 55-65.

36. Bahodirovich, X. B. (2025). DAVLATNING MAQSADLI JAMG 'ARMALARI FAOLIYATINING XUSUSIYATLARI. *ANALYSIS OF MODERN SCIENCE AND INNOVATION*, *1*(5), 98-108.

37. Bahodirovich, X. B. (2025). DAVLAT KREDITI–DAVLAT EHTIYOJLARI UCHUN PUL MABLAG 'LARINI JALB ETISH SHAKLI. *MODERN EDUCATIONAL SYSTEM AND INNOVATIVE TEACHING SOLUTIONS*, *1*(6), 95-104.

38. Bahodirovich, X. B. (2025). MOLIYAVIY NAZORAT: MAZMUNI, SOHALARI, OB'EKTI, PREDMETI, TIZIMI, VAZIFALARI, PRINSIPLARI. *THEORY OF SCIENTIFIC RESEARCHES OF WHOLE WORLDT*, *1*(4), 79-89.

39. Hakimovich, T. M. (2025). KORXONALARDA RAQOBATBARDOSH EKSPORTNI YO 'LGA QO 'YISH VA MARKETING

STRATEGIYALARI. *ANALYSIS OF MODERN SCIENCE AND INNOVATION*, *1*(4), 193-205.

40. Hakimovich, T. M. (2025). EKSPORTCHI KORXONALARNI QO 'LLAB-QUVVATLASH USULLARI VA VOSITALARI. *ANALYSIS OF MODERN SCIENCE AND INNOVATION*, *1*(4), 213-224.
41. Hakimovich, T. M. (2025). EKSPORT QILUVCHI KORXONALAR RAQOBATBARDOSHLIGINING NAZARIY TAHLILI. *THEORY OF SCIENTIFIC RESEARCHES OF WHOLE WORLDT*, *1*(3), 137-148.
42. Ibodulloyevich, I. E. DEVELOPMENT DIRECTIONS OF INNOVATIVE ENTREPRENEURSHIP IN UZBEKISTAN.
43. EI, I. (2025). MINTAQALARDA TADBIRKORLIK FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISH VA UNI INVESTITSIYA BILAN TA'MINLASHNING O 'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI. *MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS*, *1*(5), 39-50.
44. EI, I. (2025). MINTAQALAR VA MA'MURIY HUDUDLAR TADBIRKORLIK FAOLIYATINI INVESTITSIYA BILAN TA'MINLOVCHI IQTISODIY TIZIM SIFATIDA. *MODERN EDUCATIONAL SYSTEM AND INNOVATIVE TEACHING SOLUTIONS*, *1*(6), 58-69.
45. Raxmonqulova, N., & Muxammedov, T. (2025). HUDUDNING STRATEGIK IJTIMOIY-IQTISODIY SIYOSATINI BAHOLASH: METODOLOGIK YONDASHUV. *Modern Science and Research*, *4*(1), 918-921.
46. Raxmonqulova, N. O. (2025). KORXONALARDA YUZAGA KELADIGAN INQIROZ HOLATLARI VA ULARNI BOSHQARISH STRATEGIYALARI. *The latest pedagogical and psychological innovations in education*, *2*(1), 1-7.
47. Raxmonqulova, N. O. (2025). TASHKILOTDA INNOVATSION YONDASHUVLARNI BOSHQARISHNING AHAMIYATI. *The latest pedagogical and psychological innovations in education*, *2*(1), 15-21.
48. Shadiyev, A. X. (2025). METHODS OF TEACHING THE "ECONOMIC THEORY". *SHOKH LIBRARY*.
49. Shadiyev, A. X. (2025). DEVELOPMENT OF THE CURRICULUM FOR ECONOMIC DISCIPLINES IN PRIVATE UNIVERSITIES. *FARS International Journal of Education, Social Science & Humanities.*, *13*(1), 389-396.
50. Akbarovna, N. N. (2025). BYUDJET TIZIMINI ISLOH QILISHNING ASOSIY YO 'NALISHLARI. *MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS*, *1*(5), 80-86.
51. Akbarovna, N. N. (2025). MAIN TRENDS IN THE DEVELOPMENT OF MODERN MANAGEMENT TECHNOLOGIES. *FARS International Journal of Education, Social Science & Humanities.*, *13*(1), 242-249.
52. Akbarovna, N. N. (2025). MENEJER FAOLIYATINING FUNKSIONAL VAZIFALARI VA UNING MADANIYATINING AHAMIYATI. *MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS*, *1*(4), 354-362.

53. Bostonovna, D. Z. (2023). CONCEPTUAL BASIS OF IMPROVEMENT OF BANK AUDIT IN COMMERCIAL BANKS. *IMRAS*, *6*(6), 118-124.

54. Безуглова, М. Н. (2002). Государственное регулирование экономики.

55. Bazarova, M. (2023). EFFECTIVENESS OF USING PR-ADVERTISING SERVICES IN THE PROCESS OF PRODUCT DELIVERY ON THE EXAMPLE OF BUKHARA REGION. *Modern Science and Research*, *2*(12), 506-512.

56. Базарова, М. С. (2020). Развитие внимания дошкольников посредством дидактических игр. In *Исследования молодых ученых* (pp. 37-40).

57. qizi Bobojonova, M. J. (2023). AGROTURIZMNING IQTISODIYOTDA O ‘RNI, SALOHIYATI VA INFRATUZILMASINI YAXSHILASH. *Educational Research in Universal Sciences*, *2*(8), 48-52.

58. Bobojonova, M. J., & Toshev, M. H. (2025). JAHON BOZORIDA YASHIL IQTISODIYOTNI MOLIYALASHTIRISH TENDENSIYASI: FAKTLAR VA KO ‘RSATKICHLAR ASOSIDA TAHLIL. *THEORY OF SCIENTIFIC RESEARCHES OF WHOLE WORLDT*, *1*(4), 120-128.

59. Bobojonova, M. J., & Toshev, M. H. (2025). YASHIL IQTISODIYOTI RIVOJLANISH TARIXI VA SHAKLLANISHI. *ANALYSIS OF MODERN SCIENCE AND INNOVATION*, *1*(5), 154-159.

60. Jumayeva, Z. Q. (2025). ISSUES OF IMPROVING THE METHODOLOGY OF COMPETITION ASSESSMENT IN THE BANKING SERVICES MARKET OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN. *AMERICAN JOURNAL OF BUSINESS MANAGEMENT*, *3*(1), 41-49.

61. Каймова, З. А., & Темиров, Ш. (2016). Роль иностранных инвестиций в модернизации экономики республики Узбекистан. *International scientific review*, (2 (12)), 107-110.

62. To’rayevich, I. A., & AD, S. (2025). INVESTITSIYALARNI JALB QILISH VA BOSHQARISHNING XORIJ TAJRIBASI. *STUDYING THE PROGRESS OF SCIENCE AND ITS SHORTCOMINGS*, *1*(5), 12-22.

63. To’rayevich, I. A., & AD, S. (2025). MILLIY IQTISODIYOTGA XORIJIY INVESTITSIYANI JALB QILISH. *MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS*, *1*(5), 29-38.

64. To’rayevich, I. A., & AD, S. (2025). O ‘ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA MOLIYA TIZIMI VA UNING IQTISODIYOTIDA TUTGAN O ‘RNI. *MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS*, *1*(5), 64-75.

65. Sadilloyevna, D. M. (2025). Prospects for Investments in Modernization of the Economy in the Agricultural Sector. *Ethiopian International Journal of Multidisciplinary Research*, *12*(01), 217-222.

66. Джураева, М. С., & Алимова, Ш. А. (2025). АНАЛИЗ ТОЧКИ БЕЗУБЫТОЧНОСТИ И МАРЖИНАЛЬНОЙ ПРИБЫЛИ. *STUDYING THE PROGRESS OF SCIENCE AND ITS SHORTCOMINGS*, *1*(4), 88-94.